

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBOXONLIKNI  
SHAKLLANTIRISH**

*O.Maxmudova, FarDU o`qituvchisi;  
Z.Xotamova, FarDU talabasi*

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllangan tasavvur ta`limini tarbiyachi hayotiy tajribalariga asoslangan holda bor premet, shakllar va boshqalar haqida o`rgatib bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Bola ulg`aygan sari atrof-olamga bo`lgan qiziqishi ortib boraveradi. O`z navbatida ularga bo`lgan qiziqishlariga javob izlay boshlaydi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo`lgan savollarga o`z vaqtida to`g`ri javob berishi shart. Yo`qsa bolalarda bo`lgan qiziqish inqirozga yuz tutadi. Psixologik jihatdan tahlil qilinganda bolaning fikrlash qobiliyati susayadi va aqliy o`sish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keladi.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, tarbiyachi, kuzatish, tahlil qilish, pedagogic metodlar, psixologik tahlil

Psixolog R.Zazzoning fikricha, inson tug`ilgandan to yetuklik davrigacha bo`lgan psixik rivojlanishning asosini o`rtacha 3 yosh (ya’ni bu vaqtda bola juda sersavol bo`ladi) bo`lgan vaqtga to`g`ri keladi. Aql –idrokning bo`lagi. Qadim –qadim zamonlardan o`zbek xalqi o`z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergen. Hali bolalarga ta`lim-tarbiya beradigan maktablar yo`q bo`lgan bir paytlarda xalq turli o`yinlar o`ylab topgan. Masalan, „Berkinmachoq”, „Chillak” va shunga o`xshash o`yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo bo`lib borgan. Xo`sh, endi bolalarning zehnini charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o`yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan.

Rus adibi M.Gorkiyning kitob insoniyatning aqliy kamolot bosqichiga ko`tarilishida naqadar beba ho rol o`ynayotganini uqtirib:”O`zimda mavjud hamma narsalar uchun kitob oldida burchdorman. Men kitoblarni sevaman, ularning har biri menga bir mo`jiza, yozuvchi esa sehrgar bo`lib ko`rinadi. Men kitoblar haqida chuqur hayajonlanishsiz, quvonch va shavq-zavqsiz gapira olmayman. Kitob meni o`zimga tanish bo`lgan hayot ichidan olib o`tadi, ammo hamma vaqt insonda men ilgari sezmagani va bilmagan qandaydir yangi narsani o`rgatadi,” - deganida ming bora haq edi. Chunki kitob insonda ma`naviy va axloqiy poklanishni, imon, insof, diyonat, or-nomusni, mehr-oqibatni va shunga o`xshash chinakam insoniy fazilatlarni shakllanishida yetakchi o`rinni egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida kitobxonlikdan unumli foydalanish bugunning talabi ekanligi muhim. Tarbiyachi tomonidan badiiy asarga muhabbat uyg`otilishi sahnalaشتirish, qo`l teatri, qayta

hikoya qildirish metodlari orqali amalga oshirilishi kerakligi tarbiyachidan bilim va mahorat talab qiladi.

Mustaqillik davri o`zbek adabiyoti hayotini o`rganish bilishning badiiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamondoshlarimizning, jumladan, yosh avlodning ruhiy holatini teran tadbiq etishga, fikr doirasini kengaytirishga, his va tushunchalarining shakllanib, voqelikka to`g`ri munosabatda bo`lishga da`vat etadi. Mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma`nan va jismonan sog`lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo`yish muhim qadam bo`ldi. Tarbiyachi-pedagoglar hayotining ma`nosi qobil farzandlar o`stirish, ularni ham jismoniy, ham aqliy, ma`naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko`rish, ota –onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazilishida muhim omil bo`lishdan iboratdir.

Ayni shu davrda o`zbek bolalar adabiyoti tom ma`nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg`ulari ruhida tarbiyalash ilk qadamlarini qo`ydi. Tarbiyachi va ota –onalar bolaga o`z vaqtida e`tibor berishlari jarayonida kitobga, nutq ravonligiga va tozaligiga diqqatni qaratishlari, ayni paytda, logoped va psixolog yordamida bola nutqining sofligiga erishishlari ham kerak bo`ladi. Bola ulg`aygani sari unga kattalardek munosabatda bo`lish kerak, yangi ma`lumotlar haqida o`rgatish kerak. Yaponiya davlatida mavjud tarbiya tizimida bolaga muntazam ravishda kitob o`qib berish holati katta yoshga yetganda oliy ta`limga a`lo natijalar bilan kirishida katta ahamiyatga egaligini ta`kidlashadi. Hatto chaqaloqlik davrida ham bolaning oldida kitob ushlab ertaklar o`qib berish bola ongida so`zga nisbatan mehr uyg`otadi.

Bolaga to`gri tarbiya yo`lini ko`rsatishda o`yinning ham ahamiyati katta. Tarbiya yoshidagi bolalar uchun mo`ljallangan o`yin turlari o`z navbatida ikki guruhga bo`linadi: ta`limiy va didaktik o`yinlar. Ta`limiy o`yinlar - o`z ma`nosidan ko`rinib turganidek, bolaga ta`lim berishdan iborat. Masalan, „Kattasini top” o`yini. Bu o`yinda turlicha kattalikdagi shakllar mavjud bo`lib, bola shakllarni ajratishni, katta-kichik pretemtlarni farqlashni o`rganadi. Didaktik o`yin - bunda asosiy e`tibor aqlni rivojlantirishga qaratiladi. Bunga misol sifatida „Sujetli rolli o`yinlar” ni aytish mumkin. Bu o`yin bolaga yaxshi-yomonni ajratishni, kattalarga bo`lgan hurmatni, hayvonlarga bo`lgan muhabbatni o`rgatadi.

Chukovskiyning ta`kidlashicha, bola o`zining dunyosini, o`zining mantiqini yaratadi, agar kim u bilan muloqotga kirishmoqchi bo`lsa, uning olamiga kirishi hamda u yerda yashashi lozim. Bolalar o`ziga xos devonalar, chunki aniq va mustahkam voqeа-hodisalar ular uchun sho`x, quvnoq va o`tuvchan. Yo`q, bolalar aqlsiz emas, shunchaki ular yordamga muhtojdirlar. Ular o`z vaqtida bizning yordamimizsiz ham o`zlarini davolab oladi, gap shundaki, bu aqlsizlikning ichiga kirib olishda. Bu antiqa, hayratlanarli, go`zal, ummuman boshqa dunyoga kirib yashashdan hamda bolalar bilan

ularning tilida, o`sha boshqa olam tilida so`zlashishda, ularning qiyofalarini o`zida qabul qilishda hamda o`ziga xos mantiqini tushunishdadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari". -T., O'zbekiston. 2002.
2. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. -T., Fan. 1972
3. Oybek. Adabiyot, tarix, zamonaviylik. - "O'zbekiston madaniyati" 1966-yil 1-oktabr
4. Деева Е. Уистоковсоциал-демократического движения в Туркистане. Ташкент, 1975
5. "Юрий Тинянов" kitobiga yozilgan so'z boshi. M., 1963 6. Ю. Трифонов "Литературная газета", 19 июня 1974 г
6. M.O.Tokhirjonovna. VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
7. M.O.Tokhirjonovna. Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
8. O.Maxmudova. СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИННИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ. Science and innovation 1 (B6), 171-176
9. O.T.Maxmudova. TURKIY SO'ZLARDA O'ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI. Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54
10. O.T.Maxmudova. ONA TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. Innovative development in the global science 1(5), 81-87.
11. O.Maxmudova. OZBEK TILSHUNOSLIGIDA BOGIN VA UNING TIPLARI YUZASIDAN OLIB BORILGAN IZLANISHLAR. OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 105